Raximov X.B., Batiyev R.G.,
Raximova T.N

NAZARIY MEXANIKA

MUSTAQIL ISHLARNI BAJARISHGA OID USLUBIY O'QUV QO'LLANMA

$$\sum(\vec{F}_\nu + \vec{R}_\nu + \vec{\Phi}_\nu)\delta\vec{r}_\nu = 0$$

Qarshi - 2013

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

Qarshi davlat universiteti

Umumiy texnika fanlari kafedrasi

Raximov X.B., Batiyev R.G.,
Raximova T.N

Nazariy mexanikadan

Bakalavriat ta’lim yo’naishi talabalari uchun mustaqil ishlarini bajarishga doir o’quv uslubiy

Q O’L L A N M A

Qarshi - 2013

Tuzuvchilar : **Raximov X.B, Batiyev R.G**
Raximova T.N

Taqrizchlar : **QMII dots. Aliqulov T**
QDU dots. Bobojonov P

Ushbu uslubiy qo'llanmada 5520000 – « Muhandislik va muhandislik ishi» ta'lim yo'nalishlari bo'yicha Davlat ta'lim standartlariga muvofiq « Kasb ta'limi », «Matematika»,«Amaliy matematika», «Xizmat ko'rsatish texnikasi va texnologiyasi », «Gidrotexnik inshootlar va nasos stansiyalaridan foydalanish», «Qishloq xo'jalikni mexanizatsiyalashtirish »,«Elektr energetika» kabi yo'nalishi talabalari uchun nazariy mexanika fanidan o'quv dasturi asosida 8 ta mustaqil ish va topshiriqlar to'plami, berilgan. Har bir mustaqil ishda 3 ta nazariy savol, 3 ta masala, bitta hisob-grafik topshiriq variantlari berilgan. Har bir grafik topshiriqni bajarishga doir namunalar, nazorat savollari, testlar , adabiyotlar ro'yxati hamda ko'rsatma oxirida ilovalar berilgan.

Uslubiy ko'rsatma «Umumiy texnika fanlari» kafedrasida (Bayonnoma № _____ 2013 y), Kasbiy ta'lim fakulteti uslubiy komissiyasi (Bayonnoma № _____ 2013 y), universitet (Bayonnoma № _____ 2013 y) uslubiy kengashida muhokama qilingan va o'quv jarayonida qo'llashga tavsiya etilgan.

Qarshi davlat universiteti 2013 - y

K I R I SH

Ushbu uslubiy qollanmada 5520000–«Muhandislik va muhandislik ishi» ta’lim yo’nalishlari bo’yicha Davlat ta’lim standartlariga muvofiq « Kasb ta’limi », « Matematika »,« Amaliy matematika », « Xizmat ko’rsatish texnikasi va texnologiyasi », «Qishloq xo’jalik mashinalari», «Gidrotexnik inshootlar va nasos stansiyalaridan foydalanish»,«Elektr energitika» kabi yo’nalishi talabalari uchun nazariy mexanika fanidan o’quv dasturi asosida 8 ta mustaqil ish va topshiriqlar to’plami, berilgan. Har bir mustaqil ishda 3 ta nazariy savol, 3 ta masala, bitta hisob-grafik topshiriq variantlari berilgan. Har bir grafik topshiriqni bajarishga doir masalalar yechish namunalari, nazorat savollari, testlar, adabiyotlar ro’yxati hamda ko’rsatma oxirida ilovalar ham berilgan.

Ushbu uslubiy qo’llanma ilmiy – tadqiqot xarakteriga ega bo’lib, talabalardan ishni puxta bajarishni talab qiladi.

Nazariy mexanikadan mustaqil ish va topshiriqlarni bajarish talabalarning nazariy tushunchalarini texnikaga va turmushga tadbiq qilishga o’rgatadi. Yana talabalarni qunt bilan ishlashga, natijalarni tushungan holda to’g’ri baholashga o’rgatadi.

O’quv rejasida har bir yo’nalishlar bo’yicha « Nazariy mexanika» faniga ajratilgan soatlarning 40,63 % ni mustaqil ish va topshiriqlar tashkil etadi. Talabalar bilimlarini mustahkamlash uchun mustaqil ishlar asosiy rol o’ynaydi. Chunki o’tilgan mavzular va amaliy mashg’ulotlardan olgan bilimlarini adabiyotlar,internet tarmog’idan olgan ma’lumotlar bo’yicha mustahkamlaydilar. Fanning to’liq o’zlashtirish va uning qo’llanish sohalarini chuqur o’rganish uchun mustaqil ish bajariladi. Talaba mustaqil ishlarni bajarishda darslik, o’quv qo’llanmalar, tarqatma materiallar, elektron adabiyotlardan foydalanadi. Har bir mutaxassislik uchun mustaqil ish va topshiriqlar mavzusi quyida keltirilgan mavzularga asoslangan holda belgilanadi.

№	Mustaqil ish va topshiriqlarning nomi	Bajarish muddati	Ajratilgan vaqt	Tavsiya etilgan adab.
1	S-1 Hisob-grafik topshiriq. Qattiq jismning tayanch reaksiya kuchlarini aniqlash.			
2.	S-3 Hisob-grafik topshiriq. Yig’ma konstruksiyaning tayanch reaksiyalarini aniqlash.Hisob-grafik			

	topshiriq .			
3	K-1 Hisob-grafik topshiriq. Nuqtaning harakat tenglamalariga ko'ra ,uning tezligi va tezlanishini aniqlash.Hisob-grafik topshiriq.			
4.	K-3 Hisob-grafik topshiriq Yassi mexanizmning kinematik analizi.			
5.	K-7 Hisob-grafik topshiriq. Nuqtaning absolyut tezligi va tezlanishini aniqlash			
6.	D-2. Hisob-grafik topshiriq. O'zgaruvchi kuch ta'siri ostidagi moddiy nuqta harakat differensial tenglamasini integrallash.			
7.	D-10. Hisob-grafik topshiriq. Mexanik harakat jarayonlarni o'rganish uchun kinetik energiyani o'zgarish teoremasini qo'llash. Hisob-grafik topshiriq (D.10)			
8.	D-11. Hisob-grafik topshiriq. Qattiq jismning ilgarilanma va aylanma harakatlarini tekshirish.			
9	Fermalar haqida tushuncha a) Tugunlarni kesish usuli yordamida ferma sterjenlaridagi reaksiya kuchlarini aniqlash va masala yechish b)Ritter usuli yordamida ferma sterjenlaridagi reaksiya kuchlarini aniqlash va masala yechish			
10	Statik aniq va statik noaniq masalalar			
11	Tekis yoyilgan kuchlar va ularning teng ta`sir etuvchisini aniqlash			
12	Varinon teoremasi			
13	Ishqalanish kuchlarini hisobga olgan holda biriktirilgan balkalardagi reaksiya kuchlarini aniqlash			
14	Tezlanishlar oniy markazi yordamida tekis shakl nuqtasining tezlanishlarini aniqlash			
15	Murakkab harakatda tezlanishlarni qo`shish teoremasi			

16	Erkin qattiq jismning harakati va uning kinematik tenglamalari			
17	Kuchlar sistemasining invariantlari			
18	Erkin jism nuqtasining tezligi va tezlanishi			
19	Jismning ilgarilanma va aylanma harakatlarini qo`shish			
20	Nisbiy harakat dinamikasining asosiy tenglamalari			
21	Nisbiy muvozanat tenglamasi			
22	Matematik tebrangichning nisbiy harakati			
23	Differensial tenglamlarni integrallash (F=F(t); F=F(x); F=F(v) bo`lgan hollar uchun)			
24	Dinamikaning umumiy tenglamasini bir tomoni erkin harakatlanuvchi mexanik sistemani o'rganishda qo'llanishi. Hisob-grafik topshiriq (D.19) 2-sem.			
25	Muhit qarshilik kuchini hisobga olgan holda moddiy nuqtaning majburiy tebranma harakati			
26	Zarba naza riyasining asosiy tushunchalari va tenglamalari			
27	Zarba vaqtida sistema harakat miqdorining o`zgarishi haqidagi teorema			
28	Zarba ta'sirini aniqlovchi tenglamalar.			
29	Zarbali kuchlar uchun Dalamber prinsipi			
30	Qo`zg`almas o`q atrofida aylanuvchi jismga zarbaning ta`siri			
31	Tekis-parallel harakatdagi jismga zarbaning ta'siri.			
32	Umumlashgan koordinatalar,umumlashgan kuchlar. Sistemaning umumlashgan koordinatalardagi muvozanat shartlari.			
33.	Lagranjning 2 – tur tenglamalari.			
	Jami:			

Mustaqil ish va topshiriqlar mavzularining namunalari

1-mustaqil ish mavzusi

Tekislikdagi kuchlar sistemasi va fermalarni hisoblash usullari haqida tushuncha

Reja:

1.Fermalar haqida tushuncha

a) Tugunlarni kesish usuli yordamida ferma sterjenlaridagi reaksiya kuchlarini aniqlash va masala yechish

b) Ritter usuli yordamida ferma sterjenlaridagi reaksiya kuchlarini aniqlash va masala yechish.



2- masala(K.4.2.2). Agar fermaga F=600N kuch ta'sir etsa, AB sterjendagi zo'riqishni hisoblang. (849)

3 Statik aniq va statik noaniq masalalar.

4- masala(K.3.2.3). O'lchamlari AB=2m va BC =0,5m bo'lgan sterjendan iborat sistemaga momenti M=800 N*m li juft kuch ta'sir etsa, C tayanchdagi reaksiya momentini aniqlang. (200)



5. Tekis yoyilgan kuchlar va ularning teng ta`sir etuvchisini aniqlash.

6- masala(K.2.4.6). AB to'singa intensivligi q=2 N/m taqsimlangan kuchlar va $\alpha = 45^0$ burchak ostida yo'nalgan F=6 N kuch ta'sir etadi. Agar AC=AB/3 , AB=2 m bo'lsa, B tayanchdagi reaksiya kuchini aniqlang. (4,08)



7.S-1. Hisob-grafik topshiriq . Qattiq jismning tayanch reaksiya kuchlarini aniqlash.

Tayanch so'z va iboralar: 1) kuchlar sistemasi $(\vec{F}_1, \vec{F}_2, ...\vec{F}_n)$ 2) ekvivalent kuchlar sistemasi $(\vec{F}_1, \vec{F}_2, ...\vec{F}_n) \Leftrightarrow (\vec{Q}_1, \vec{Q}_2 ..., \vec{Q}_n)$; 3) bog'lanishdagi jism(harakati biror sabab bilan cheklangan jism bog'langan jism deyiladi); 4) bog'lanish va bog'lanish reaksiya kuchlari (Jism harakatini cheklovchi sababga bog'lanish deb ataladi.Bog'lanish ta'sirini almashtiruvchi kuch reaksiya kuchi deyiladi); 5) Ferma va tugun (Sharnrlar vositasida geometrik o'zgarmas qilib tutashtirilgan sterjenlardan hosil bo'lgan konstruksiyaga ferma deb ataladi. Sterjenlarning uchlarini tutashtiruvchi nuqtaga tugun deyiladi); 6) Yassi ferma (Sterjenlari bir tekislikda yotuvchi fermaga yassi ferma deyiladi); 7) statik aniq va statik noaniq fermalar(Ortiqcha sterjenga ega bo'lmagan ferma statik aniq ferma, ortiqcha sterjenga ega bo'lgan fermaga statik noaniq ferma deb ataladi); 8) tugunni kesish usuli; 9) Maksvell- Kremon diagrammasi; 10) Retter usuli; 11) statik aniq masala; (noma'lumlar soni muvozanat tenglamalari soniga teng bo'lsa, bunday masalaga statik aniq, masala deyiladi); 12) statik noaniq masala(noma'lumlar soni

muvozanat tenglamalari sonidan ortiq bo'lsa, bunday masalaga statik noaniq masala deyiladi); 13) Tekislikdagi kuchlar sistemasining bosh vektori($\sum \vec{F}_\nu = \vec{R}$ 14) Tekislikdagi kuchlar sistemasining bosh momenti($\vec{M} = \sum \vec{M}(F_\nu)$ 15) Varin'on teoremasi($M_0(\vec{R}) = \sum \vec{M}_0(\vec{F}_\nu)$; 16) Tekislikdagi kuchlar sistemasining muvozanatda bo'lishining zarur va yetarli sharti ($\sum X_\nu = 0; \sum Y_\nu = 0; \sum M_0(\vec{F}_\nu) = 0$

S-1. Qattiq jismning tayanch reaksiya kuchlaqrini aniqlash

1-4- rasmdagi sxemalarda brusning uch xil usulda o'q bo'yicha egallagan chizig'i ko'rsatilgan.

Berilgan kuchlar (1-jaqdvalga qarang) va o'lchamlar uch xil ulanishlarda ham bir xildir.

1-jadvalda ko'rsatilgan , aniqlanadigan reaksiya kuchining qiymati bruslar qanday usul bilan mahkamlanganda eng kichik qiymatga ega bo'lishini aniqlang?

1-jadval

n.v(1-4 rasm)	P,kN	M,kN*m	Q,kN/m	Tek.rea.	n.v.(1-4 rasm)	P,kN	M,kN*m	Q,kN/m	Tek.rea
1	10	6	2	y_A	16	12	6	2	M_A
2	20	5	4	M_A	17	20	4	3	y_A
3	15	8	1	y_B	18	14	4	2	x_A
4	5	2	1	y_B	19	16	6	1	R_B
5	10	4	-	x_B	20	10	-	4	y_A
6	6	2	1	M_A	21	20	10	2	M_A
7	2	4	2	x_A	22	6	6	1	y_a
8	20	10	4	R_B	23	10	4	2	M_A
9	10	6	-	y_a	24	4	3	1	y_A
10	2	4	2	x_A	25	10	10	2	x_a
11	4	10	1	R_B	26	20	5	2	M_A
12	10	5	2	y_A	27	10	6	1	x_A
13	20	12	2	y_A	28	20	10	2	y_a
14	15	4	3	y_A	29	25	-	1	M_A
15	10	5	2	x_A	30	20	10	2	R_B

1-masala (S-1). Bruslarning mahkamlanishi va ularga ta'sir etuvchi $P = 5kN, M = 8kN*m, q = 1,2kN/m$ kuchlarning quyilishi 1-rasm a,b,s larda ko'rsatilgan.M_A momentning qiymati qaysi ulanishda eng kichik bo'lishini va shu ulanishdagi tayanch reaksiya kuchlarini aniqlang.

Yechish. Konstruksiyaga qo'yilgan muvozanatlashtiruvchi kuchlar sistemasini tekshiraylik



1-rasm(S-1)



2-rasm(S-1)



3-rasm(S-1)



4-rasm(S-1)

Konstruksiyadagi bog'lanishlarni, ularning reaksiya kuchlarini 2-rasmdagi a) sxemada- x_A, y_A, z_A; b) sxemada $y_A^{'}, M_A^{'}, R_B$; s) sxemada $M_A^{''}, x_B, y_B$ lar bilan

almashtiramiz. Tekis taqsimlangan kuchlar intensivligi q ni teng ta'sir etuvchi Q kuch bilan almashtiramiz, uning qiymati:. Q=2q=2,4 kN. ga teng bo'ladi.

Uchta sxemadan qaysi birining mahkamlangan A nuqtasidagi M_A momentning qiymati eng kichik bo'lishini , boshqa reaksiya kuchlarini hisoblamasdan aniqlaymiz 2-rasm a sxema uchun A nuqtaga nisbatan barcha kuchlarning momentlarining yig'indisi nolga teng bo'lgan muvozanat tenglamasini yozamiz:

$$\sum M_{iA} = 0; M_A - 2P\sin 45^0 + M - 5Q = 0. \quad (1)$$

Berilganlarni qo'yib M_A ning qiymatini hisoblaymiz: M_A =11,07 kN*m.

2-rasm b sxema uchun: $\sum M_{iC} = 0; M_A^{'} + M - 5Q = 0, M_A^{'} = 4kN*m$ (2)

2-rasm sxema uchun:

$$\sum M_{iB}^{''} = 0; M_A^{''} + P*BD + M + Q*1 = 0, M_A^{''} = -31kN*m \quad (3)$$

Bu yerda BD=BE+ED= $BD = BE + ED = \sqrt{2} + 2\sqrt{2} = 4{,}24m$

Shunday qilib, mahkamlangan qismning eng kichik momenti 2-rasm b sxemada hosil bo'lar ekan. Bu sxemadagi qolgan reaksiya kuchlarini ham hisoblaymiz:

$$\sum x_i = 0; \; P\cos 45^0 - R_B = 0 \quad (4)$$

bundan R_B =3,54kN

$\sum y_i = 0; \; y_A^{'} - P\sin 45^0 - Q = 0$ bundan $y_A^{'} = 5{,}94kN$. (5)

Hisoblash natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

1-rasmdagi sxemalar	Moment $M_A(M_A^{'}, M_A^{''}), kN*m$	Kuchlar, kN	
		$y_A^{'}$	R_B
a	11,07	-	-
b	4,00	5,04	3,54
s	-31,61	-	-

2-masala(S-1. V-28). *Berilganlar: P=20 kN, M=10 kN, q=2kN/m, t.k; $y_{A-?}$*

a)1- rasm a uchun Q=2q=2*2=4kN. A nuqta uchun muvozanat tenglamalarini tuzamiz;

$$\sum M_{iA} = 0; \quad -M - 2P + 2R_B + !*Q = 0 \quad (1)$$

$$\sum X_i = 0; \; P + X_A = 0 \quad (2)$$

$$\sum Y_i = 0; \; R_B + Y_A - Q = 0 \quad (3)$$

(1)ifodadan R_B ni aniqlaymiz:

$$R_B = \frac{M + 2P - Q}{2} = \frac{10 + 2*20 - 4}{2} = \frac{46}{2} = 23kN$$

(3)dan Y_A ni aniqlaymiz:

$Y_A = Q - R_B = 4 - 23 = -19kN$,

(2)dan X_A ni aniqlaymiz: $X_A = -P = -20kN$.

b) sxemadagi A nuqtaga nisbatan moment olamiz:

$$\sum M_{iA} = 0; \quad -M - 2P + 2R_B + 1*Q = 0 \quad (4)$$

$$\sum X_i = 0; \; P - R_B + X_A = 0 \quad (5)$$



1-rasm

$$\sum Y_i = 0;\ \ Y_A^{'} - Q = 0 \qquad (6)$$

(6) ifodadan $Y_A^{'} = Q = 4kN$

s) sxemadagi A nuqtaga nisbatan moment olamiz.

$$\sum M_{iA} = 0;\ \ -M - 2P + 1*Q - R_{cx}*2 = 0; R_{cx} = R_c\cos 45^0; R_{cy} = R_c \sin 45 \qquad (7)$$

$$\sum X_l = 0;\ \ -P + X_A - R_c\cos 45^0 = 0 \qquad (8)$$

$$\sum Y_i = 0;\ \ Y_A^{''} + R_c \sin 45^0 - Q = 0 \qquad)9)$$

(7) dan

$$R_c = \frac{Q - M - 2P}{2\cos 45} = \frac{4 - 10 - 2*20}{2*0{,}705} = -\frac{46}{1{,}41} = -32.16kN.$$

(9)dan $Y_A^{''} = Q - R_c \sin 45 = 4 - 32*0{,}705 = -18{,}56kN$

Demak a,b,s sxemalardan b sxemadagi Y_A=4kN eng kichik bo'ladi.

(4) dan R_B ni topamiz.

$$R_B = \frac{M + 2P - Q}{2} = \frac{10 + 2*20 - 4}{2} = \frac{46}{2} = 23kN.$$

(5) dan X_A ni topamiz. $X_A = R_B - P = 23 - 20 = 3kN$

Hisob natijalari 2-jadvalda keltirilgan:

1-rasmdagi sxemalar	K u ch l a r , kN			
	X_A	$Y_A, Y_A^{'}, Y^{''}_A$	R_B	
a		-19		
b	3	4	23	
s		-18,56		

Nazorat savollari

1. Kuchlar sistemasi deb nimaga aytiladi ?
2. Qanday kuchlar sistemasi ekvivalent sistema deyiladi?
3. Qanday kuch berilgan kuch sistemasining teng ta'sir etuvchisi deyiladi?
4. Bog'lanishdagi jism deb nimaga aytiladi?
5. Bog'lanish reaksiya kuchi deb nimaga aytiladi?

6. Tarmoqlangan kuchlarning qanday turlari bor va ular qanday aniqlanadi?
7. Ferma va tugun deb nimaga aytiladi ?
8. Yassi ferma deb nimaga aytilad?
9. Statik aniq va statik noaniq fermalarlar deb nimaga aytiladi?
10. Tugunni kesish usulini tushuntiring.
11. Maksvell- Kremon diagrammasi tushuntiring.
12.Retter usulini tushuntiring.
13. Statik aniq masala deb nimaga aytiladi ?
14. Statik noaniq masala deb nimaga aytiladi
13.Tekislikdagi kuchlar sistemasining bosh vektori formulasini yozib tushuntiring?
14. Tekislikdagi kuchlar sistemasining bosh momenti formulasini yozib ma'nosini tushuntiring?
15. Varin'on teoremasi ifodasini yozib ma'nosini tushuntiring?

16. Tekislikdagi kuchlar sistemasining muvozanatda bo'lishini zarur va etarli sharti ifodalarini yozib ma'nosini tushuntiring?

1-test. Quyidagi ifodalardan tekislikdagi kuchlar sistemasining bosh vektori formulasini, kesishuvchi kuchlar ta'siridagi jismning muvozanat sharti, Varinon teoremasi ifodalarini ko'rsating?

1. $\sum \vec{F}_\nu = \vec{R}$; 2. $R = \sqrt{F_1^2 + F_2^2 - 2F_1F_2\cos(\pi - \alpha)}$ 3. $R = \sqrt{R_x^2 + R_y^2 + R_z^2} = 0;$

4. $\vec{M} = \sum \vec{M}(F_\nu)$; 5. $M_0(\vec{R}) = \sum \vec{M}_0(\vec{F}_\nu)$; 6. $\sum X_\nu = 0; \sum Y_\nu = 0; \sum M_0(\vec{F}_\nu) = 0$;

2-test. Quyidagi ifodalardan teng ta'sir etuvchi kuchning modulini, tekislikdagi kuchlar sistemasining bosh momenti, tekislikdagi kuchlar sistemasining muvozanatda bo'lishini zarur va yetarli sharti ifodalarini ko'rsating?

1. $\sum \vec{F}_\nu = \vec{R}$; 2. $R = \sqrt{F_1^2 + F_2^2 - 2F_1F_2\cos(\pi - \alpha)}$ 3. $R = \sqrt{R_x^2 + R_y^2 + R_z^2} = 0;$

4. $\vec{M} = \sum \vec{M}(F_\nu)$; 5. $M_0(\vec{R}) = \sum \vec{M}_0(\vec{F}_\nu)$; 6. $\sum X_\nu = 0; \sum Y_\nu = 0; \sum M_0(\vec{F}_\nu) = 0$;

Klasterni tuzish qoidalari **13-ilova**

1. Topshiriqni diqqat bilan o'qib chiqing.
2. Fikrlarni tarmoqlantirish jarayonida paydo bo'lgan har bir fikrni yozing.
3. Imlo xatolar va boshqa jihatlarga e'tibor bermang.
4.Belgilangan vaqt tugamaguncha yozishni to'xtatmang, fikringizni jamlashga harakat qiling.
5.Fikrlarni chegaralamang, ular o'rtasida o'zaro aloqadorlikka e'tibor qarating.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Rashidov T.R. va boshqalar. «Nazariy mexanika asoslari», T, «O'qituvchi»,1991 y.**
2. **M.M.Mirsaidov va boshqalar. «Nazariy mexanika», T, «Ilm ziyo» , 2009 y.**
3. **O.E.Kere va boshqalar. «Nazariy mexanika fanidan qisqa masalalar to'plami», T, «Yangi asr avlodi», 2008 y.**

2-mustaqil ish mavzusi
Jismning sirpanish va dumalanishdagi ishqalanishini va bir tekislikda yotuvchi bir necha jismdan tashkil topgan sistemaning muvozanatini o'rganish

Reja:

1.Ishqalanish kuchlarini hisobga olgan holda biriktirilgan balkalardagi reaksiya kuchlarni aniqlash.



2-masala(K.2.5.2). Og'irligi 200N bo'lgan 1 yuk blok orqali ip yordamida 2 yukka bog'langan. Agar 1 yuk va tekislik orasidagi ishqalanish koeffisenti f=0,2 bo'lsa,1 yuk o'rnidan qo'zg'alishi uchun 2 yukning eng kam miqdorini toping. (40)

3.Tekis yoyilgan kuchlar va ularning teng ta`sir etuvchisini aniqlash.



4-masala(K.2.5.7). Qiya tekislikdagi 1 jismga F=90 N kuch ta'sir etadi. Agar jism va tekislik orasidagi ishqalanish koeffisenti f=0,3 bo'lsa, yuk o'z o'rnidan yuqoriga qo'zg'alishi uchun uning og'irligi qancha bo'lishi lozim? (118)

5.Tekislikda joylashgan kuchlar sistemasi ta'siridagi tekis mexanizmning muvozanati.



6-masala(K. K.2.6.4. Og'irligi 2 kN bir jinsli g'ildirakka gorizontal F kuchi ta'sir etib, g'ildirak sirpanmay va dumalamay turishi uchun kuchning eng katta qiymatini toping. Bunda g'ildirakning radiusi R=0,6m va o'lchamlari OA =0,4m . Sirpanib va dumalab ishqalanish koeffisentlari f=0,2 va $\delta = 0{,}006m$ deb oling. (12).

7. S-3 Hisob-grafik topshiriq. Yig'ma konstruksiyaning tayanch reaksiyalarini aniqlash.

Tayanch so'z va iboralar: 1) to'g'ri chiziq kesmasi bo'yicha tekis taqsimlangan kuchlar ($Q = aq$); 2) To'g'ri chiziq kesmasi, bo'yicha chiziqli qonun bo'yicha taqsimlangan kuchlar ($Q = \frac{1}{2}aq_m$) ; 3) devorga qisib mahkamlangan balkaga ta'sir etuvchi taqsimlangan kuchlar; 4) Tekislikda joylashgan kuchlar sistemasining muvozanati ($\sum X_\nu = 0; \sum Y_\nu = 0, \sum M_0(\vec{F}_0) = 0$

5) tekislikda joylashgan kuchlar sistemasi ta'siridagi tekis mexanizmning muvozanati; 6) Birlashtirilgan ikkita jismdan tashkil topgan konstruksiyaning reaksiya kuchlarini aniqlash.

S-3 Hisob-grafik topshiriq. Yig’ma konstruksiyaning tayanch reaksiyalarini aniqlash

Ikkita jismdan tashkil topgan tutash balkalarning muvozanat holatini tekshirish.Ikki qismli balka bog’lanish reaktsiya kuchlarini va oraliq sharnirlardagi bosim kuchini aniqlash.

Konstruksiya (sistema) ikki qismdan tashkil topgan. Konstruksiya qismlarini qanday usul bilan ulaganda 1 jadvalda ko’rsatilgan reaksiya kuchining miqdori eng kichik bo’ladi, bu variant uchun tayanch reaksiya kuchlarini hamda C birlashgan nuqtaning reaksiya kuchlarini aniqlang.

1-jadval.

Variant raqami	P_1 кН	P_2 кН	M, кН м	q, кН/м
1	5,0	-	24,0	0,8
2	6,0	10,0	22,0	1,0
3	7,0	9,0	20,0	1,2
4	8,0	-	18,0	1,4
5	9,0	-	16,0	1,6
6	10,0	8,0	25,0	1,8
7	11,0	7,0	20,0	2,0
8	12,0	6,0	15,0	2,2
9	13,0	-	10,0	2,4
10	14,0	-	12,0	2,6
11	15,0	5,0	14,0	2,8
12	12,0	4,0	16,0	3,0
13	9,0	6,0	18,0	3,2
14	6,0	-	20,0	3,4
15	5,0	8,0	22,0	3,6
16	7,0	10,0	14,0	3,8
17	9,0	12,0	26,0	4,0
18	11,0	10,0	18,0	3,5
19	13,0	9,0	30,0	3,0
20	15,0	8,0	25,0	2,5
21	10,0	7,0	20,0	2,0
22	5,0	6,0	15,0	1,5
23	8,0	5,0	10,0	1,4
24	11,0	4,0	5,0	1,3
25	14,0	6,0	7,0	1,2

26	12,0	8,0	9,0	1,1
27	10,0	7,0	11,0	1,0
28	8,0	9,0	13,0	1,2
29	6,0	10,0	15,0	1,4
30	10,0	12,0	17,0	1,6

S-3. Hisob-grafik topshiriqqa doir 1-masalalarni yechish namunasi

1-masala (S-3). Tutash balkalarning muvozanat holatini tekshirish. Ikki qismli balka bog'lanish reaksiya kuchlarini va oraliq sharnirlardagi bosim kuchini aniqlash.

Berilgan: P1=5kN; P2=6kN ; M=34kN*m ; g =1,5kN/m;

Berilgan shaklni chizib olamiz va bog'lanishlarni reaksiya kuchlari bilan almashtirib, balkaning har bir qismi uchun muvozanat tenglamasini yozamiz. Qo'zg'almas A tayanchning reaktsiya kuchi R_A , qo'zg'aluvchi B va S sharnirning reaksiya kuchlari mos ravishda R_C va R_B – lar bo'lsin, u vektorlar tekisliklarga perpendikulyar ravishda bo'ladi. DC- balkaning DC- qismida q tekis taqsimlangan kuchlarni Q- teng ta'sir etuvchisi bilan almashtiramiz, ya'ni Q=gl =1,5*3=4,5kN

Endi balkaning AD va DS qismlari uchun muvozanat tenglamalarini yozamiz.

AD- balka uchun

$$\sum X_i = 0; \qquad X_A - P_1 \cos 45^0 - X_D = 0 \qquad (1)$$

$$\sum Yi = 0; \qquad Y_A - P_1 \sin 45^0 + Y_D = 0 \qquad (2)$$

$$\sum M_A(\overrightarrow{F_i}) = 0; \qquad Y_D 3 - M - P_1 \sin 45^0 1 = 0 \qquad (3)$$

DC-balka uchun

$$\left.\begin{array}{l} \sum X_i = 0; \\ \sum Yi = 0; \\ \sum Mc(\overrightarrow{F_i}) = 0; \end{array}\right\} \quad (4) \qquad \left\{\begin{array}{l} X_D - N_C \sin 30^0 = 0 \\ N_B - Y'_D - P_2 - Q + N_C \cos 30^0 = 0 \end{array}\right. \quad (5)$$

$$1{,}5Q - 3N_B + 4P_2 + 5Y_D^{'} = 0 \qquad (6)$$


1
90°
P1
C
M
q
3,5
A
B
4
2
2
C
1,5
P2
P1
90°
1,5
A
B
2
2
4
3
P1
M
C
30°
P2
q
3
2
A
B
5
4
P1
M
q
10
A
B
C
1
1
4
5
q
M
B
30°
P1
C
D
4
4
4
4
A
6
P2
45°
P1
C
B
2
2
1
2
A
2
45°
7
P1
1
3
C
D
M
2
q
P2
60°
A
B
3
3
8
3
3
C
P2
1
P1
30°
2
A
B
M
3
9
q
P1
45°
C
2,5
M
A
B
3
2
2
10
M
C
1
q
P1
90°
3
A
B
2
1,5
1,5

1-rasm(S-3)

11



12



13



14



15



16



17



18



19



20




21
P1
45°
2
q
2
q
M
B
C
1
3
2
A
22
M
P1
45°
P2
q
3
A
D
C
1
2
1
1
30°
23
P1
45°
M
q
A
C
D
1
2
1
1,5
2
1
24
M
P1
P2
q
60°
B
C
4
4
2
4
5
2,5
2,5
A
25
q
2
3
C
P2
M
D
45
90°
P1
A
1,5
45°
26
P1
M
P2
4
30°
60°
F
A
B
C
D
q
2
2
2
2
30°
27
4
q
P2
4
B
A
M
F
60°
C
2
4
2
P1
28
C
P1
M
2
45°
A
B
D
q
2
3
60°
P2
29
q
P1
P2
30°
M
45°
A
B
C
D
4
2
2
2
30
P2
4
4
P1
60°
D
A
q
M
B
30°
2
2

3-rasm(S-3)



AD- balka uchun

$$\sum X_i = 0; \qquad X_A - P_1 \cos 45^0 - X_D = 0 \qquad (1)$$

$$\sum Yi = 0; \qquad Y_A - P_1 \sin 45^0 + Y_D = 0 \qquad (2)$$

$$\sum M_A(\overrightarrow{F_i}) = 0; \qquad Y_D 3 - M - P_1 \sin 45^0 1 = 0 \qquad (3)$$

DC-balka uchun

$$\left.\begin{aligned} &\sum X_i = 0; \\ &\sum Yi = 0; \\ &\sum Mc(\overrightarrow{F_i}) = 0; \end{aligned}\right\} \qquad (4)$$

$$\begin{cases} X_D - N_C \sin 30^0 = 0 \\ N_B - Y'_D - P_2 - Q + N_C \cos 30^0 = 0 \\ Q1{,}5 - N_B 3 + P_2 4 + Y'_D 5 = 0 \end{cases} \qquad (5)$$

(6)

Ta‘sir va aks ta‘sir aksiomasiga asosan

$$\begin{cases} X_D = X'_D \\ Y_D = Y'_D \end{cases} \qquad (7)$$

(8)

Hosil bo’lgan tenglamalardan, ya‘ni:

(3) dan $YD = \dfrac{M + P_1 \dfrac{\sqrt{2}}{2}}{3} = \dfrac{34 + 5\dfrac{\sqrt{2}}{2}}{3} \approx 12{,}5kH$

(8) dan $Y'_D = Y_D = 12{,}5kH$

(6) dan $N_B = \dfrac{Q \times 1{,}5 + P_2 4 + Y'_D 5}{3} = \dfrac{4{,}5 \times 1{,}5 + 6 \times 4 + 12{,}5 \times 5}{3} \approx 31{,}08 \approx 31{,}1kH$

(5) dan $N_C = \dfrac{Y'_D + P_2 + Q - N_B}{\cos 30^0} = \dfrac{12{,}5 + 6 + 6{,}75 - 31{,}1}{0{,}866} \approx -6{,}75kH$

(4) dan $X'_D = N_C \sin 30^0 = -6{,}75 \times 0{,}5 = -3{,}37kH$

(2) dan $Y_A = P_1 \sin 45^0 - Y_D = 5\dfrac{\sqrt{2}}{2} - 12{,}5 = -8{,}96kH$

(1) dan $X_A = P_1 \cos 45^0 + X_D = 0{,}16kH$

(7) dan $X_D = X'_D = -3{,}37kH;$ larni hosil qilamiz.

S-3. Hisob-grafik topshiriqqa doir 2-masalani yechish namunasi

2-masala(S-3). Ikkita jismdan tashkil topgan sistemaning tayanchlarda hosil bo’ladigan reaksiya kuchlarini aniqlash**.**

Konustruksiya (sistema) ikki qismdan tashkil topgan. Konstruksiya qismlarini qanday usul bilan ulaganda 1- jadvalda ko’rsatilgan reaksiya kuchining miqdori eng kichik bo’ladi, bu variant uchun tayanch reaksiya kuchlarini hamda C birlashgan nuqtaning reaksiya kuchlarini aniqlang.

1-rasmdagi konstruksiya sxemasida quyidagi $P_1 = 5kN, P_2 = 7kN; M = 22kN/m; q = 2kN/m; \alpha = 60^0$ kuch momenti va kuchlar quyilgan bo’lsin. Konstruksiyaning C nuqtasi sharnirli yoki sirpanib harakat qiladigan moslama bilan birlashtirilganda A tayanchning reaksiya kuchi eng kichik bo’lishi va tayanchlardagi reaksiya kuchlari aniqlansin (1-rasm).

Yechish: 1. C nuqta sharnirli ulanganda A tayanchning reaksiya kuchini aniqlaymiz Konistruksiyaning barcha qismlariga muvozanatlashuvchi kuchlar ta’sir etsin. B nuqtaga nisbatan kuchlar momentlarining tenglamasini tuzamiz. P_1 kuchning momentini hisoblashni soddalashtirish uchun uni vertikal va gorizontal tashkil etuvchilarga ajratamiz:

$P_1^{'} = P_{1x} = P_1 \cos 60^0 = 2{,}5kN, P_1^{''} = P_{1y} = P_1 \sin 60^0 = 4{,}33kN.$

$\sum M_{iB} = 0;\ P_1^{'} * 3 + 8 * P_1^{''} - 1 * Q - 5 * y_A + 1 * x_A - M + P_2\sqrt{17^2 + 1{,}5^2} = 0, \qquad (1)$

Bu yerda Q=4*q=2*4=8kN ekanligini hisobga olamiz.

Berilgan kattaliklarni (1) ga quyib hisoblaymiz:

$x_A + 5y_A = -24{,}74kN$ $(1^{'})$

$(1^{'})$ dagi x_A va y_A noma'lumlarni aniqlash uchun C sharnirni chap qismidagi muvozanatlovchi kuchlarni C nuqtaga nisbatan momentini tenglamasini yozamiz.

$M_{iC} = 0;\ P_1^{''} * 6 + 2Q + 4x_A - 3y_A = 0$ yoki hisoblashdan keyin

$4x_A + 3y_A = 41{,}98kN$ (2)



1-rasm



2-rasm

Tenglamani hosil qilamiz. $(1^{'})$ va (2) tenglamalarni birgalikda yechib X_A=-7,97kN, y_A=3,36kN larni aniqlaymiz.

C nuqta sharnirli ulangandagi A tayanchning reaksiyasini miqdorini hisoblaymiz:

$$R_A^{'} = \sqrt{x_A^2 + y_A^2} = \sqrt{7{,}97^2 + 3{,}36^2} = \sqrt{74{,}81} = 8{,}65kN$$

2. Konsturuksiyaning C nuqtasi sirpanuvchi moslama bilan ulangandagi hisoblash sxemasi 4 - rasmda ko'rsatilgan. 2- va 4- rasmlarda ko'rsatilgan kuchlar sistemalari bir-biridan hech qanday farq qilmaydi. Shuning uchun $(1^{'})$ tenglama o'zgarishsiz qoladi. C sirpanuvchi moslamaning chap qismidagi muvozanatlashuvchi kuchlarning x va y o'qlaridagi muvozanat tenglamalarini yozamiz.



3-rasm



4-rasm

$\sum X_i = 0;\ X_A + Q - P_1^{'} = 0$ (3)

bundan X_A=-5,5kN va ($1^{'}$) dan Y_A=3,85 kN ni aniqlaymiz.

C sirpanuvchi moslama bilan ulanganda A tayanchning reaksiyasini miqdori:

$R_A^{"} = \sqrt{X_A^2 + Y_A^2} = \sqrt{5{,}5^2 + 3{,}85^2} = 6{,}71kN$ ga teng bo'ladi.

Shunday qilib C nuqta tayanch reaksiya kuchi sharnerli ulangandagiga nisbatan, sirpanuvchi moslama bilan ulanganda (~20 %) kam bo'lar ekan.

B tayanchdagi va sirpanuvchi moslamadagi reaksiya kuchlarini aniqlaymiz.

C nuqtaning chap qismi uchun (5-rasm,a)quyidagi

$$\sum Y_i = 0; \quad -P_1^{"} + Y_A + Y_C = 0 \qquad (4)$$

Tenglamani tuzamiz , bundan

$Y_C = P_1^{'} - Y_A = 0{,}48kN$ ni aniqlaymiz.

B tayanchning reaksiya kuchini va sirpanuvchi moslamaning momentini C nuqtaning o'ng qismidagi muvoza-natlashuvchi kuchlarning muvozanat tenglamalaridan aniqlaymiz (5-rasm,b).



5-rasm

$$M_{iB} = 0; \quad M_C + Y_C 2 - M + 1{,}8P_2 = 0$$

$$\sum X_i = 0; \quad -P_2 \cos\beta + X_B = 0 \qquad (6)$$

$$\sum Y_i = 0; \quad -Y_C + Y_B - P_2 \sin\beta = 0 \qquad (7)$$

ΔBCD to'g'ri burchakli uchburchakdan

$$\sin\beta = \frac{BD}{BC} = 2/\sqrt{2^2 + 3^2} = \frac{2}{3{,}61} = 0{,}56; \cos\beta = \frac{CD}{BC} = \frac{3}{3{,}61} = 0{,}832$$

(5)-(7) tenglamalarni birgalikda yechib, M_C, X_B, Y_B larni aniqlaymiz;

$M_C = 8{,}44kN * m; \quad X_B = 5{,}82kN; \quad Y_B = 4{,}37kN$

Reaksiya kuchlarini to'g'ri topilganligini aniqlash uchun konstruksiyaning barcha qismiga quyilgan kuchlarning oldin foydalanilmagan muvozanat tenglamasidan foydalaniladi (2-rasmga qarang),masalan,

$$\sum M_{iA} = P_1^{'} 4 + 3P_1^{"} - 2Q - M - 4P_2 \sin\beta + P_2 \cos\beta * 2{,}5 - X_B * 1 + 5Y_B = 2{,}5 * 4 + 3 * 4{,}33 - 8 * 2 -$$

$$- 22 - 7 * 0{,}555 * 4 + 7 * 0{,}832 * 2{,}5 - 5{,}82 * 1 + 4{,}37 * 5 = 59{,}4 - 59{,}36 \approx 0$$

Hisoblash natijalarini - jadvalga yozing.

	K u ch l a l a r, kN						Moment,kn*m
	X_A	Y_A	R_A	Y_C	X_B	Y_B	
1-rasmdagi sxema uchun	-7,97	3,36	8,65	-	-	-	
4-rasmdagi sxema uchun	-5,5	3,85	6,71	0,48	5,82	4,37	8,44

Nazorat savollari

1. To’g’ri chiziq kesmasi bo’yicha tekis taqsimlangan kuchlar deb nimaga aytiladi?
2. To’g’ri chiziq kesmasi, bo’yicha chiziqli qonun bo’yicha taqsimlangan kuchlar ni tushuntiring.
3. Kuchning nuqtaga nisbatan momenti deb nimaga aytiladi?
4. Kuchning o’qqa nisbatan momenti deb nimaga aytiladi?
5. Fazodagi juft kuchlar muvozanat sharti qanday?
6. Devorga qisib mahkamlangan balkaga ta’sir etuvchi taqsimlangan kuchlarni tushuntiring;
7. Tekislikda joylashgan kuchlar sistemasining muvozanatini tushuntiring.
8. Tekislikda joylashgan kuchlar sistemasi ta’siridagi tekis mexanizmning muvozanati qanday bo’ladi?
9. Birlashtirilgan ikkita jismdan tashkil topgan konstruksiyaning reaksiya kuchlarini aniqlashni tushuntiring?

1-test. Quyidagi ifodalardan to’g’ri chiziq kesmasi bo’yicha tekis taqsimlangan kuchlarni, tekislikda joylashgan kuchlar sistemasining muvozan shartini , kuchning o’qqa nisbatan momenti ifodalarini ko’rsating?

1. $Q = aq$; 2. $Q = \frac{1}{2} aq_m$; 3. $\sum X_\nu = 0; \sum Y_\nu = 0, \sum M_0(\vec{F}_0) = 0$; 4. $\vec{M}_0 = \vec{m}_0(\vec{F}) = \vec{r} x \vec{F}$;

5. $m_z(\vec{F}) = \pm F_{xy} h$; 6. $\vec{M} = \sum \vec{M}_\nu = 0; \sum M_{\nu x} = 0, \sum M_{\nu y} = 0, \sum M_{\alpha z} = 0$

2-test. Quyidagi ifodalardan to’g’ri chiziq kesmasi, bo’yicha chiziqli qonun bo’yicha taqsimlangan kuchlarni, kuchning nuqtaga nisbatan momentini, fazodagi juft kuchlar muvozanatini ifodalarini ko’rsating?

1. $Q = aq$; 2. $Q = \frac{1}{2} aq_m$; 3. $\sum X_\nu = 0; \sum Y_\nu = 0, \sum M_0(\vec{F}_0) = 0$; 4. $\vec{M}_0 = \vec{m}_0(\vec{F}) = \vec{r} x \vec{F}$;

5. $m_z(\vec{F}) = \pm F_{xy} h$; 6. $\vec{M} = \sum \vec{M}_\nu = 0; \sum M_{\nu x} = 0, \sum M_{\nu y} = 0, \sum M_{\alpha z} = 0$

Munozara ishtirokchisiga eslatma

1.Munozara shaxsiy munosabatlarni hal qilish emas, balki muammoni yechish uslubi hisoblanadi.

2.Judayam uzoq gapirma, boshqalarga ham fikr bildirish imkonini ber.

3.So’zlarni o’ylab, hissiyotlaringni jilovlab gapir, shunda sening aqlli fikrlaring maqsadga yetaklaydi.

4.Boshqalarning tutgan yo’lini o’rgan va ularga hurmat bilan qara.

5.Faqatgina munozara mavzusi bo’yicha gapirishga harakat qil.

6.O’z nutqing bilan boshqalarni behurmat qilishdan cheklan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1 Rashidov T.R. va boshqalar. «Nazariy mexanika asoslari», T, «O’qituvchi»,1991 y.

2. O.E.Kere va boshqalar. «Nazariy mexanika fanidan qisqa masalalar to’plami», T, «Yangi asr avlodi»,2008 y.

3- mustaqil ish mavzusi
Nuqta kinematikasi va nuqtaning berilgan harakat tenglamasiga ko'ra tezligi, tezlanishini aniqlash

Reja:

1. Burchakli koordinatalar sistemasida nuqtaning traektoriyasi va tezligi.
2-masala. (K7.1.3). Nuqtaning harakati koordinatalar ko'rinishida: $x = 3t,\ y = t^2$ berilgan bo'lsa, t=2s paytida nuqta koordinata boshidan qancha masofaga uzoqlashadi? (7,21)
3.Nuqtaning urinma va normal tezlanishlari.
4- masala (K.7.2.5). Nuqtaning tezligi $\vec{\vartheta} = 2t\vec{i} + 3\vec{j}$ berilgan bo'lsa, t=4s paytda tezlik vektori va Ox o'qi orasidagi burchakni graduslarda toping. (20,6)
5. Harakat qonuni tabiiy usulda berilgan nuqtaning tezlanishi.
6- masala (K.7.4.6). Nuqtaning tezlik vektori $\vec{\vartheta} = 0{,}9t\vec{i} + t^2\vec{j}$ bo'lsa,t=1,5s vaqtdagi tezlanishni aniqlaqng. (3,13)
7. K-1. Hisob-grafik topshiriq. Nuqtaning berilgan harakat tenglamasiga ko'ra tezligini va tezlanishini aniqlash.

Tayanch so'z va iboralar: 1) nuqtaning traektoriyasi (nuqta harakatlanganda uning berilgan sanoq sistemasiga nisbatan chizgan uzluksiz chizig'i nuqtaning traektoriyasi deyiladi) ; 2) to'g'ri chiziqli harakat (agar nuqta traektoriyasi to'g'ri chiziqdan iborat bo'lsa,uning harakati to'g'ri chiziqli harakar deyiladi; 3) nuqta harakatining vektori usuli()($\vec{r} = \vec{r}(t)$); 5) tabiiy usuli (s=s(t)); 7) nuqta harakatini koordinatalar usulida ifodalash($x = x(t); y = y(t); z = z(t)$); 8) harakati koordinatalar usulida berilgan nuqta tezligi $\vec{\vartheta} = \vartheta_x\vec{i} + \vartheta_y\vec{j} + \vartheta_z\vec{k}$ 9) harakati vertor usulida berilgan nuqtaning tezlanishi $\vec{a} = \frac{d\vec{\vartheta}}{dt} = \frac{d^2\vec{r}}{dt^2}$ 10) harakati koordinatalar usulida berilgan nuqtaning tezlanishi $\vec{a} = a_x\vec{i} + a_y\vec{j} + a_z\vec{k}$ 11) Egri chiziqli harakatda nuqtaning urinma va normal tezlanishlari $\vec{a}_\tau = \frac{d\vec{\vartheta}_\tau}{dt}, \vec{a}_n = \frac{\vec{\vartheta}^2}{\rho}$ 12) harakat qonuni tabiiy usulda berilgan nuqtaning tezlanishi. $\vec{a}_\tau = \frac{d\vec{\vartheta}_\tau}{dt}, \vec{a}_n = \frac{\vec{\vartheta}^2}{\rho}, \vec{a}_b = 0$

.

K – 1. (Grafik topshiriq). Nuqta harakatining berilgan tenglamasiga ko'ra tezlik va tezlanishini aniqlash.

M nuqta harakatining berilgan tenglamasiga asosan uning traektoriya tenglamasini va vaqtning $t=t_1$ paytida nuqtaning traektoriyasidagi o'rni (koordinatasi)ni,uning tezligini,urinma,normal va to'la tezlanishini, hamda traektoriyasining egrilik radiusini aniqlang. Yechish uchun zarur bo'lgan kattaliklarni 1-jadvaldan oling.

1-jadval

Variant nomeri	Harakat tenglamasi		Vaqt, s
	X=x(t) , sm	Y= y(t) , sm	t_1
1	$-2t^2+3$	-5t	1/2
2	$4\cos^2((\pi t/3)+2$	$4\sin^2(\pi t/3)$	1
3	$-\cos(\pi t^2/3)+3$	$\sin(\pi t^2/3)-1$	1
4	4t +4	-4/(t+1)	2
5	$2\sin(\pi t/3)$	$-3\cos(\pi t/3)+4$	1
6	$3t^2+2$	-4t	1/2
7	$3t^2$-t+1	$5t^2$-5t/3-2	1
8	$7\sin(\pi t^2/6)+3$	$2-7\cos(\pi t^2/6)$	1
9	-3/(t+2)	3t+6	2
10	$-4\cos(\pi t/3)$	$-2\sin(\pi t/3)-3$	1
11	$-4t^2$+1	-2t	1/2
12	$5\sin^2(\pi t/6)$	$-5\cos^2(\pi t/6)-3$	1
13	$5\cos(\pi t^2/3)$	$-5\sin(\pi t^2/3)$	1
14	-2t-2	-2/(t_+1)	2
15	$4\cos(\pi t/3)$	$-3\sin(\pi t/3)$	1
16	3t	$4t^2+1$	1/2
17	$7\sin^2(\pi t/6)-5$	$-7\cos^2(\pi t/6)$	1
18	$1+3\cos(\pi t^2/3)$	$3\sin(\pi t^2/3+3$	1
19	$-5t^2$-4	3t	1
20	2-3t-$6t^2$	3-3t/2-$3t^2$	0
21	$6\sin(\pi t^2/6)-2$	$6\cos(\pi t^2/6)+3$	1
22	$7t^2-3$	5t	1/4
23	3-$3t^2$+t	4-$5t^2$ +5t/3	1
24	$-4\cos(\pi t/3)-1$	$-4\sin(\pi t/3)$	1
25	-6t	$-2t^2$ -4	1
26	$8\cos^2(\pi t/6)+2$	$-8\sin^2(\pi t/6)-7$	1
27	$-3-9\sin(\pi t^2/6)$	$-9\cos(\pi t^2/6)+5$	1
28	$-4t^2$ +1	-3t	1
29	$5t^2$ +5t/3-3	$3t^2$ +t+3	1

K1.topshiriqqa doir masalalar yechish namunalari (Variant-28) .

Berilganlar: $X=-4t^2+1$, y==-3t, t_1=1 s (1)

V_x-?, v_y-?, v- ?, a_x -?, a_y -?,a -?, a_τ -?, a_n= ?, $\rho-?$

(1)dan vaqtni yo'qotish uchun mazkur tenglamaning birinchisidan t ni topib, uni (1) ning ikkinchisiga qo'ysak,traektoriya tenglamasi kelib chiqadi.

$$4tx-1; t=\sqrt{\frac{x-4}{4}}=\frac{\sqrt{x-4}}{2} \quad , \quad y=-3*\frac{\sqrt{x-1}}{2}=-\frac{3}{2}\sqrt{x-1} \qquad (2)$$

(2)dan ko'rinadiki, nuqta traektoriyasi to'g'ri chiziqdan iborat ekan.

t=1 sekundda nuqta koordinatalari: x=-3 sm , y=-3 sm

(1) dan vaqt bo'yicha hosila olib, tezlik proeksiyalari va tezlik modulini topamiz: $\vartheta_x = \dot{x} = -8t : \vartheta_y = \dot{y} = -3$ (3)

t=1 s da $\vartheta_x = -8sm/s; \vartheta_y = -3sm/s$

$$\vartheta = \sqrt{\vartheta_x^2 + \vartheta_y^2} = \sqrt{(-8)^2 + (-3)^2} = \sqrt{73} = 8{,}54sm/s \quad (4)$$

(3) dan hosila olsak:

$$a_x = \dot{\vartheta}_x = -8\frac{sm}{s}; a_y = \dot{\vartheta}_y = 0 \quad (5)$$

$$a = \sqrt{a_x^2 + a_y^2} = \sqrt{64 + 0^2} = 8\frac{sm}{s^2}$$

Urinma tezlanishni aniqlaymiz:

$$a_\tau = \frac{\vartheta_x a_x + \vartheta_y a_y}{\vartheta} = \frac{(-8)*(-8)+0}{8{,}54} = 7{,}82\frac{sm}{s^2} \quad (6)$$

Normal tezlanish quyidagicha bo'ladi

$$a_n = \sqrt{a^2 - a_\tau^2} = \sqrt{8^2 - (7{,}8)^2} = 1{,}73\frac{sm}{s^2} \quad (7)$$

Egrilik radiusi esa :

$$\rho = \frac{\vartheta^2}{a_n} = \frac{(8{,}54)^2}{1{,}73} = 42sm \quad (8)$$



1-rasm

(2) dan ko'ramizki, nuqta traektoriyasi to'g'ri chiziqdan iborat. t=1s sekunddagi barcha kinematik parametrlar yo'nalishini rasmda ko'rsatamiz (1 -rasm). t=1 s da nuqta koordinatalari x=-3 sm, y=-3 sm.

Vaqtning t=1s da (3)- (8) ifodalar bilan hisoblanadigan kattaliklarning qiymatlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

Koor-talar,sm		**Tezliklar,sm/s**			**Tezlanishlar, sm/s^2**					**Egrilik radiusi,sm**
x	y	v_x	v_y	v	a_x	a_y	a	a_τ	a_n	ρ
-3	-3	-8	-3	8,5	-8	0	8	7,82	1,73	42

K-1. V-26. Berilganlar:

$x = 8\cos^2(\frac{\pi t}{6}) + 2 = 6 + 4\cos\frac{\pi t}{3}$; $y = -8\sin^2(\frac{\pi t}{6}) - 7 = -11 + 4\cos\frac{\pi t}{3}$, t_1=1 s. (1)

Yechish. Harakatning izini koordinata ko'rinishdagi tenglamasidan vaqt t ni yo'qoptib,

$x - y = 17;\ y = x - 17$ (2)

Nuqtaning izi to'g'ri 1 chiziqdan iborat bo'ladi (1-rasm).

Nuqtaning tezlik vektori; $\vec{\vartheta} = \vartheta_x\vec{i} + \vartheta_y\vec{i}$ (3)

Nuqtaning tezlanish vektori: $\vec{a} = a_x\vec{i} + a_y\vec{j}$ (4)

Bu yerda $\vec{i}, \vec{j}$ - x,y o'qlarning ortlari (birlik vektorlari); $\vartheta_u, \vartheta_y, a_x, a_y$ - nuqtaning tezlik va tezlanishini koordinata o'qlardagi proeksiyalari.

(1) dan vaqt bo'yicha hosila olib, quyidagi harakat tenglamasini hosil qilamiz.

$$\vartheta_x = \dot{x} = -\frac{4\pi}{3}\sin\frac{\pi t}{3} \quad , \vartheta_y = \dot{y} = -\frac{4\pi}{3}\sin\frac{\pi t}{3} \qquad (5)$$

t=1 s da $\vartheta_x = -3{,}63 sm/s; \vartheta_y = -3{,}63 sm/s$

$$\vartheta = \sqrt{\vartheta_x^2 + \vartheta_y^2} = \sqrt{(-3{,}63)^2 + (-3{,}63)^2} = 5{,}62 sm/s$$

(5) dan hosila olsak:

$$a_x = \dot{\vartheta}_x = -\frac{4\pi^2}{9}\cos\frac{\pi t}{3} = -2{,}2\frac{sm}{s^2}; a_y = \dot{\vartheta}_y = -\frac{4\pi^2}{9}\cos\frac{\pi t}{3} = -2{,}2\frac{sm}{s^2}$$

$$a = \sqrt{a_x^2 + a_y^2} = \sqrt{(\ 2{,}22)^2 + (\ 2{,}22)^2} = 3{,}15\frac{sm}{s^2}$$

Urinma tezlanishni aniqlaymiz:

$$a_\tau = \frac{\vartheta_x a_x + \vartheta_y a_y}{\vartheta} = \frac{(-3{,}63)*(-2{,}2) + (-3{,}63)(-2{,}2)}{5{,}62} = 3{,}12\frac{sm}{s^2} \qquad (6)$$

Normal tezlanish quyidagicha bo'ladi.

$$a_n = \sqrt{a^2 - a_2} = \sqrt{3{,}15^2 - (3{,}12)^2} = 0 \qquad (7)$$

Egrilik radiusi esa :

$$\rho = \frac{\vartheta^2}{a_n} = \frac{(5{,}62)^2}{0} = \infty \qquad (8)$$



2-rasm

(2)dan ko'ramizki, nuqta traektoriyasi to'g'ri chiziq-dan iborat. t=1s sekunddagi barcha kinematik paramet yo'nalishini rasmda ko'rsatamiz (1 -rasm). t=1 s da nuqta koordinatalari x=8 sm, y=-9 sm.

Vaqtning t=1s da (3)- (8) ifodalar bilan hisoblanadigan kattaliklarning qiymatlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

Koor-talar,sm		**Tezliklar,sm/s**			**Tezlanishlar, sm/s^2**					**Egrilik radiusi,sm**
x	y	v_x	v_y	v	a_x	a_y	a	a_τ	a_n	ρ
8	-9	-3,63	-3,63	5,64	-2,2	-2,2	3,15	3,15	0	∞

Nazorat savollari.

1. Nuqtaning traektoriyasi deb nimaga aytiladi?
2. To'g'ri chiqli harakat deb qanday harakatga aytiladi?
3. Nuqta harakatining vektorli , tabiiy , koordinata usullarini tushuntiring.
4. Nuqta harakatining vektor ko'rinishining kinematik tenglamasini yozib tushuntiring.
5. Harakati koordinatalar usulida berilgan nuqta tezligi ifodasini yozib tushuntiring.
6. Harakati vektor usulida berilgan nuqtaning tezlanishini yozing.
7. Harakati koordinatalar usulida berilgan nuqtaning tezlanishini yozing.
8. Nuqtaning urinma va normal tezlanishlari ifodalarini yozib tushuntiring.
9. Harakat qonuni tabiiy usulda berilgan nuqtaning tezlanishi ifodasini yozing.

1-test. Quyidagi ifodalardan nuqta harakatining vektorli ifodasini, harakati vektor usulida berilgan nuqtaning tezlanishi ifodasini va egri chiziqli harakatda nuqtaning urinma va normal tezlanishlari ifodalarini ko'rsating?

1. $\vec{r} = \vec{r}(t)$; 2. $x = x(t); y = y(t); z = z(t)$; 3. (s=s(t); 4. $\vec{\vartheta} = \vartheta_x \vec{i} + \vartheta_y \vec{j} + \vartheta_z \vec{k}$; 5.

$\vec{a} = \frac{d\vec{\vartheta}}{dt} = \frac{d^2\vec{r}}{dt^2}$;6. $\vec{a} = a_x \vec{i} + a_y \vec{j} + a_z \vec{k}$;7. $\vec{a}_\tau = \frac{d\vec{\vartheta}_\tau}{dt}, \vec{a}_n = \frac{\vec{\vartheta}^2}{\rho}$; 8. $\vec{a}_\tau = \frac{d\vec{\vartheta}_\tau}{dt}, \vec{a}_n = \frac{\vec{\vartheta}^2}{\rho}, \vec{a}_b = 0$

